

**PROFESSIONAL TA'LIMDA O'QITUVCHILARNING O'Z- O'ZINI PEDAGOGIK  
RIVOJLANTIRISH USULLARI**

**Abdullaeva Surayyo Zaripovna**

*Xorazm viloyati Yangibozor tuman 1-son kasb- $\chi$ unar maktabi*

*ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari*

*Telefon: +998(97) 360-83-66*

*Surayyo.040481@mail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada professional ta'lim muassasalari o'qituvchilarning o'z-o'zini kasbiy-metodik rivojlantirishning samarali usullari, ularning mustaqil pedagogik faoliyat olib borishini rivojlantirish masalalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *professional ta'lim, mustaqil ta'lim, kompetentlik, mahorat turlari, kasbiy-metodik, o'quv-texnologik, pedagogik faoliyat.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional tahlim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoniga asosan professional ta'lim muassasalarida o'qituvchilar mustaqil ta'lim berish ko'nikma va malakalarini hamda pedagogik faoliyat yurita olish kompetentligini rivojlantirish masalalari dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda.

Pedagogik bilimlar, mustaqil pedagogik faoliyat yuritish professional ta'lim muassasasi o'qituvchisi kasbiy mahoratining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'z navbatida professional ta'lim o'qituvchisi jamiyat ma'naviy hayoti, moddiy ishlab chiqarish sohalarini pedagogik jihatdan yo'naltirishga yordam beradi. Professional ta'lim tizimi o'qituvchisining mustaqil pedagogik faoliyat yurita olish kompetentligini shakllantirish barcha gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-ilmiy va matematik bilimlar, pedagogik - psixologik hamda umumkasbiy va maxsus tayyorgarlik mazmunini ishlab chiqish, professional ta'lim o'qituvchisi pedagogik faoliyati haqida, uning vazifalari va hal etadigan ta'limiy-tarbiyaviy masalalari, munosabatlari usullari borasida to'la tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. O'rganilayotgan xodisaning har tomonlama nazariy-metodik va tajriba-amaliy jihatdan o'rganilishi, o'qituvchining mustaqil pedagogik faoliyat yurita olish kompetentligini shakllantirish darajasini tizimli aniqlashda yuzaga kelgan ilmiy yondashuvni tasavvur etishga imkon beradi.

Mustaqil pedagogik faoliyat yurita olish kompetentligini shakllantirishning maqsadi kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida o'qituvchining o'z- o'zini anglash, baholash va boshqarish kabi tarkibiy qismlarni rivojlantirish va turli ta'lim muassasalarida ishlashga tayyorlash ya'ni fanlar asoslarini o'rganish vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim: aniq pedagogik hamda ishlab chiqarish

muammoli vaziyatlarda masalalarni ajratib olish va ularni hal qilish usuli sifatida pedagogik va texnik-texnologik tafakkurni rivojlantirish;

professional ta'lim tizimi o'qituvchisining pedagogik-shaxsiy faoliyati asosi sifatida pedagogik, umumkasbiy va ixtisoslikga oid bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga erishish; kasbiy faoliyat individual metodining asosi sifatida, o'quv-pedagogik va ishlab chiqarish harakatlarining reprodktiv va ijodiy usullarini shakllantirish;

muhim kasbiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirish (hamdardlik, bolalarni sevisish va boshqalar), kasbiy va shaxsiy o'z- o'zini rivojlantirish ehtiyojini yuzaga keltirish hisoblanadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning o'qitish va tarbiyalashda eng asosiy ta'sirni o'qituvchi ko'rsatar ekan, o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganligi, o'quv va tarbiya jarayonini boshqarishda namoyon bo'ladi. O'quvchilarni to'g'ri tarbiya va bilim olishi, ularning baholari yaxshi bo'lishiga bog'liq.

Professional ta'lim tizimi o'qituvchisi darsga tayyorlanayotganda har xil metod va usullarni qo'llab yangi materialni qanday bayon qilishni o'ylaydi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning tajribasi, jismoniy rivojlanishi va kasb unumdorligiga ta'sir qiladigan boshqa faktorlarni hisobga olgan holda ish ob'ektlarini tanlaydi. Ma'lumki, hozirgi zamon ishlab chiqarishi juda tez surhatlar bilan rivojlanmoqda. Kasb qurollari, texnologik protsesslar uzluksiz takomillashib bormoqda. Bu ma'lum darajada professional ta'limda o'z aksini topishi kerak. Demak, o'qituvchilar fan va texnika sohasidagi taraqqiyotni uzluksiz kuzatib borishi, ulardan ta'lim oluvchilarni tushunarli shaklda xabardor qilib turishi va o'z mahorati ustida ishlashi kerak.

Professional ta'lim o'qituvchilarining ta'im va tarbiya berishida, mahorat turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Ta'lim berish mahorati;
- Ta'limning zamonaviy usullarini qo'llay olish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- inson omilini ta'minlovchi fazilati;
- bilimlarni holisona baholash va nazorat qila olish mahorati.

Professional ta'lim o'qituvchisi pedagogik faoliyatini nazorat qilishda quyidagi jihatlarga: ta'lim – tarbiya ishining aniq maqsadga yo'naltirilganligini, ilmiy jihatdan asoslanganligini hamda uning mazmunini to'g'ri tanlanganligini aniqlash; kasb va kasbiy faoliyatning natijasi sifatini aniqlash, rivojlanish bosqichlari, taraqqiyot darajasini belgilash hamda istiqboldagi yo'nalishlarini yoritish; ta'lim va tarbiyaning muqobil samarali uslublarini ishlab chiqish, o'quvchi va o'qituvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirishga, pedagogik jamoaning barcha a'zolari orasida o'zaro ishonchga, do'stlikka, hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan yagona maqsad sari intilish kabi

vazifalarni aniqlashga e'tibor berish zarur.

Professional ta'limning har bir bosqichi uchun ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasida tayanch kompetentlik aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda professional ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy xamda shaxsiy tajribaning moxiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy kasb etadi. Ushbu nuqtai nazardan tayanchkompetentlik: yaxlit – mazmunli, ijtimoiy – madaniy, o'quv – bilish, axborot olish, kommunikativ, ijtimoiy faoliyatli, shaxsning o'z– o'zini takomillashtirish turlariga bo'linadi.

Professional ta'lim o'qituvchisining kasbiy-metodik shakllanishi quyidagi tarzda namoyon bo'ladi: pedagogik tizim, jarayon va natija. Ijtimoiy qoidalar kasbiy shakllanish darajasini baholashda muhim asoslar sifatida aks etadi va ular, o'z navbatida, Davlat ta'lim standarti mazmunida qayd etiladi. Ta'lim tizimi faoliyatini baholashda uning samaradorligi hamda pedagogik tizim rivoji bilan bog'liq asosiy ko'rsatkichlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Aynan ana shu ko'rsatkichlar o'qituvchining kasbiy shakllanish darajasini baholash mantiqini asoslabberadi.

Professional ta'lim muassasalari o'qituvchilarining mustaqil pedagogik faoliyat yurita olish kompetentlik darajalarini rivojlantirishda foydalaniladigan shakllar, metodlar, vositalar yetarli ilmiy asoslanmaganligi kuzatildi. Mustaqil pedagogik faoliyat yurita olish uchun o'qituvchida qiziqish, hohish, qobiliyat yetarli darajada shakllangan, mustaqil ishlashga ehtiyojli bo'lishi, o'qituvchilarning mustaqil ta'lim olishiga qator psixologik omillar ham ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Professional ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy mahoratini hamda mustaqil pedagogik faoliyat ko'rsatish kompetentligini rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlar, mahorat turlari, metodik tayyorgarlik natijasida rivojlanishi ko'rsatib o'tildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azimov E.G., SHukin A. N. “Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам).” – Moskva: “IKAR”, 2009. S. 247.
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Vikipediya. Svobodnaya ensklopediya.
3. <http://psylib.myword.ru>